

БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Республика илмий-назарий анжуман материаллари

2020 йил 6 ноябрь



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**БУХОРО МУСИҚА
ФОЛЬКЛОРНИНГ ТАРИХИЙ-
НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ
МАСАЛАЛАРИ**

Республика илмий-назарий анжуман материаллари

2020 йил 6 ноябрь

БУХОРО – 2020

Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий- назарий ва амалий масалалари // Республика илмий-назарий анжумани. Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2020 й. – 244 бет.

Анжуманнинг дастурий қўмитаси

1. О.Х. Хамидов – университет ректори, раис
2. О.С. Қаҳҳоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис ўринбосари
3. Б.Х. Мадримов – Санъатшунослик факультети декани, аъзо
4. У.М. Миршаев – Мусиқа таълими кафедраси мудири в.в.б., аъзо
5. С.Д. Дўстов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо
6. Д.Ю. Рўзиев – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо
7. З. Алаева – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиба

Анжуманнинг ташкилий қўмитаси:

1. Ж.Т. Ярашев- Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси Р.һ.д., аъзо
2. Т.И. Ражабов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо
3. И.А. Қўшаев – Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо
4. Ф.Г. Нуруллаев – Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо
5. Т.Дж. Мухамедов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо

Масъул муҳаррир:

Б.Х.Мадримов, педагогика фанлари номзоди, профессор

Такризчи:

Д.Ю. Рўзиев, педагогика фанлари номзоди, доцент

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

Б.Т. Жўраев

jiyagi zarin- xitoy parchadan tikilgan lozim kiyib, poshnasi past zardo‘zi shippak yoki kovush bilan xirom qilinganda har qanday ko‘zda o‘t chaqnagan. Chunki, raqqosa bilagidagi oltin bilaguzuk yal-yal yonib diqqatni tortsa, raqqosa qulog‘idagi qadimiy buxorcha (shibirma) isirg‘a uning nozik harakatlari bilan silkinib turlicha nur taratgan. Raqqosa orqasiga kerilib istig‘no bilan egilganda uzun chilvir sochlari bilan baravar bo‘y talashib ular ostidagi buxorcha shukuf har yerga tegib raqqosa qomatini tarang tortilgan yoyga o‘xshatib qo‘ygan. Odatda, raqqosa egnidagi zardo‘zi ko‘ylak yoki zardo‘zi kamzo‘lning yoqa, yenglari ham yoki zar, yoki ipak bilan kashtalangan bo‘lgan. Zardo‘zi peshonabog‘ taqib olingan yoki kundal do‘ppi kiyilgan. Raqsdagi harakatlar jozibadorligini kuchaytirishda qayroq hamda qo‘l bilagiga va belga solingan zang yoki qo‘ng‘iroqchalar yana oyoq bilagiga solingan zang va qo‘ng‘iroqchalar muhim xususiyat kashf etgan.

Shuningdek, “Buxorcha” xalq ashula va raqs turkumi ham endilikda nafaqat to‘ylarda, balki xalq sayllarida turli-tuman shodiyona marosimlarda ham ijro etila boshlandi. Uning ayrim namunalari “Bahor” va “Zarafshon” dastalaridan muhim o‘rin oldi. Buxorolik xonandalardan Oliyaxon Hasanova tuzgan “Moxi Sitora”, Tuhfa Pinxasovanning “Nozanin” dastalari repertuaridan “Buxorcha” lar keng o‘rin egallagan. Bu dastalar doimo xalq xizmatida bo‘lib to‘y marosimlarida, sayllarda, Navro‘z va Mustaqillik bayramlarida buxoroliklar nomidan “Buxorcha” larni kuylab elni lol qoldirib kelishmoqdalar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bugungi kunda “Buxorcha” turkumlarini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish borasida qator muvaffaqiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek kelgusida “Buxorcha” folklor qo‘shiqlarini ijro etuvchi yosh xonandalar ushbu turkumning yangi-yangi qirralarini ochishiga keng imkoniyatlar mavjud.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karomatov F. O‘zbek xalq musiqasi merosi XX asr- Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot. 1985 -B 20.
2. Safarov O. “Buxorcha va “Mavrigi” taronalari. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti 2005 yil. 27-bet.
3. Hamidov H. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti. 1996.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI XALQ MUSIQASIGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Sh.U.Norova, BuxDU katta o‘qituvchisi

Musiqasi o‘qituvchisi o‘quvchilarning musiqasi madaniyatini tarbiyalash vazifasini o‘z oldiga qo‘yar ekan, bunda eng samarali yo‘llardan biri ularni o‘zbek xalq musiqasi namunalari bilan tanishtirishdan iboratdir. Zero, o‘zbek xalq musiqasi yorqin, xalqchil o‘ziga xos janrlardan tarkib topgandir. O‘zbek qo‘shiqlari usul-ritmga nihoyatda boyligi, ohangdorligi, o‘ziga xos milliy sifatlari bilan inson qalbining eng nozik torlarini chertib, unga milliy g‘urur va

iftixor tuygʻusini uygʻotadi. Biroq hozirgi maktab oʻquvchisi xalq milliy musiqasining badiiy qimmatini hammavaqt ham sezib, idrok eta olmaydi. Shu bois milliy anʼanalar, xalq musiqasiga nisbatan bolalarning qiziqishini asta-sekin, bosqichma-bosqich shakllantirib borish bugungi kun musiqa oʻqituvchisining muhim vazifasidir. Shundan kelib chiqib, bu boradagi metodik ishni boshlangʻich sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir deb oʻylaymiz. Kichik yoshdagi oʻquvchilarni “Laylak qor”, “Oq terakmi koʻk terak,” “Choriy-chambar ”kabi yorqin, ohista, sodda va bolalarbop xalq qoʻshiqlari bilan tanishtirib borish yaxshi samara beradi.

Bolalarda xalq musiqasiga qiziqishini shakllantirishning ilk bosqichida oʻqituvchining musiqiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish masalasi nihoyatda muhimdir. Oʻquvchilarning yosh xususiyatlari, musiqiy talab va ehtiyojlari, imkoniyatlarini inobatga olish oʻqituvchining zimmasida boʻladi. Keyingi bosqichda oʻqituvchi oʻquvchilarni xalq musiqasi mohiyatiga tushinish uni anglashga va ushbu janrning mazmuni hamda gʻoyaviyligini idrok etishlariga erishmogʻi kerak. Maʼlumki oʻzbek musiqa folʼklori ashula va cholgʻu qismlaridan tarkib topadi. Binobarin, xalq musiqa ijodiyotining asosiy qismini lirik xarakterdagi asarlar tashkil etadi. Oʻquvchilarni xalq musiqasi namunalari bilan respublikamiz vohalarida oʻziga xos uslubda rivojlangan turkum qoʻshiq va raqslar bilan tanishtirib, ular haqida oʻquvchilarga kengroq maʼlumot berish ijobiy natija berishi mumkin. Masalan Buxoroda shakllanib, shu joyda ommalashgan va faqat Buxorogagina xos boʻlgan “Buxorcha” va “Mavrigi” turkumi Buxoro vohasida keng tarqalgan boʻlib, uning tarkibi lirik va shoʻx xalq raqslaridan iboratdir. Turkumdagi qoʻshiq va raqslarning jozibadorligi, oʻynoqi hamda diltortar navolari kishini oʻziga maftun etadi. “Buxorcha ”va “Mavrigi” turkumi har biri alohida xarakterga ega boʻlib, ular oʻtmishda “Buxorcha”-ayollar oʻrtasida, “Mavrigi”lar esa faqat erkaklar tomonidan ijro etib kelinganligi va ulardagi qoʻshiqlar bir-biridan ohang, ritmik lad tuzilishi va ijro uslublarida farq qilishini bolalarga tushintirib berish lozim boʻladi. Shuningdek bugungi kunda ushbu turkum ijrosida erkagu ayol baravar ishtirok etishini ham taʼkidlab oʻtish maqsadga muvofiqdir.

Ana shunday maʼlumotni oʻquvchilarga respublikamizning boshqa vohalariga xos boʻlgan xalq qoʻshiqlari haqida ham yetkazish foydalidir. Masalan Xorazm “Lazgisi”, “Namanganning olmasi”, “Andijon polʼka”si singari qoʻshiq va raqslar borasida oʻquvchilarga maʼlumot berilsa, ularning xalq qoʻshiqlariga boʻlgan muhabbati, qiziqishi yanada ortib boradi. Chunki mazkur qoʻshiqlarda xalqimizning orzu-umidlari, quvonchu tashvihlari, urf-odatlarini oʻz ifodasini topgan boʻladi.

Bundan tashqari musiqa oʻqituvchisi oʻquvchilarning xalq musiqasi tushunchasini chuqurlashtirish uchun boshqacha usullardan ham foydalanishi mumkin. Masalan, oʻqituvchi oʻquvchilarga quyidagi manzara ifodalangan tasviriy sanʼat asarini namoyish etadi: mazkur kartinada sharqona bozor, unda turli savdo rastalari va bozor maydonchasida tumonat odamlar toʻplanib

dorbozlarning chiqishini tomosha qilib turishibdi. Yonginasida esa, qo'g'irchoqbozlar o'yini, sal keyinroqda qiziqchiyu latifachilar tomosha ko'rsatishayapti. Bularning barchasini esa o'zbek xalq cholg'ulari karnay, surnay, doira va nog'ora sadolari boshqarib borayapti. Xo'sh, bolalar yuqorida nomlari keltirilgan milliy sozlar haqida qanday ma'lumotga ega? Endi musiqa o'qituvchisi ushbu sozlarning paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va hozirgi musiqa ijrochiligida ularning o'rni borasida ma'lumot berishi lozim. Masalan, doyra-O'rta Osiyo xalqlari, xususan o'zbek va tojiklar orasida keng tarqalgan qadimiy soz bo'lib, u asosan musiqa ijrochiligida usulni boshqarib turadi. Bu esa o'zbek musiqasida asosiy tamoyillardan eng muhimi hisoblanadi. So'ngra doyraning keng tamoshabinlar e'tiboriga sazovor bo'lganligini aytib o'tish lozim. O'zbek xalq musiqa san'atida doira raqs ijrochiligi bilan chambarchas bog'langandir. Doyrachi doyra usullarining barchasini mukammal egallabgina qolmay balki u raqs san'atini ham yaxshi bilishi shart.

Karnay sozi misdan yasalgan bo'lib u nafas bilan chalinadi, uzunligi ikki metr dan ortiq, og'zi kengayib boruvchi konussimon shaklga ega. Olib yurishga qulay bo'lishi uchun u qismlarga (bo'laklarga) bo'lingan. Ovozi yo'g'on va kuchli. Nog'ora sozi zarbli cholg'u hisoblanib tuvaksimon shaklda sopoldan (ba'zida misdan) yasaladi. Kosasi kiyik yoki echki terisi bilan qoplanadi. Nog'oraning bir necha turlari mavjud. Qo'sh nog'ora, katta, kichik va ko's nog'ora singari xillari to'y- hashamlarda va katta sayllarda ishlatiladi. Nog'orada asosan ikkita ingichka va uzun cho'plar vositasida usullar ijro etiladi. Ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etadigan milliy sozlardan yana biri surnay cholg'usidir. Surnay – yuqori tomoni ingichka, past tomoni kengayib borgan konussimon puflama soz bo'lib, yong'oq yoki o'rik yog'ochidan o'yib yasaladi. Surnayning ovozi kuchli va jarangdor bo'lib, u milliy marosim ananalarida keng ishlatiladi, ayniqsa karnay, doira va nog'ora jo'rligida o'ziga xos chog'u ansambli dastasini tashkil etadi. Yakkanavoz cholg'u sifatida ham mashhur bo'lib kelmoqda. Uning imkoniyatlari keng va rang – barangdir. Surnay sozi qayta ta'mirlanganligi tufayli hozirda akademik ijro qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari milliy musiqa namumalari bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida musiqa o'qituvchisi bolalarni mumtoz musiqa hamda shashmaqom haqida ma'lumot berib uning ustoz ijrochilari nomlari va hamda ijro uslublari haqida ham xabardor qilishi yaxshi natija beradi. Shunday qilib ushbu mo'jazzgina maqolamizda musiqa madaniyati darsida o'quvchilarni milliy-musiqiy fol'klar, namunalaridan foydalanishning ba'zi usullari ustida to'xtalib o'tdik, xolos. Bizning yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalarimiz o'quvchilarning xalq musiqasiga bo'lgan qiziqishlarini ma'lum darajada oshirishi mumkin degan fikrni aytmoqchimiz.

МУНДАРИЖА

| | |
|--|----|
| ХАМИДОВ О.Х. Бухоро мусиқа фольклори – азалий ва абадий қадриятлар сарчашмаси | 3 |
| І ШЎБА | |
| БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ БОРАСИДАГИ ЁНДАШУВЛАРДА МУАММО ВА ЕЧИМЛАР | |
| АБДУЛЛАЕВ Р. Халқ мусиқа ижоди номоддий маданий мероси сифатида | 4 |
| МАДРИМОВ Б. Ўқувчиларга эстетик тарбия беришда ўзбек мусиқа фольклорининг аҳамияти | 7 |
| АВЕЗОВ Р. Мавриги рақсларининг анъанавий ижроси | 11 |
| ЮСУПОВ Д. Фольклор ва кўфирчоқ театри | 15 |
| RUSTAMOV V. Joylarda havaskorlik jamoalarini tashkil etish uslubiyoti | 18 |
| РЎЗИЕВ Д.Й. Фольклор кўшиқларининг ўзига хос хусусиятлари | 22 |
| ҲАСАНОВ Ҳ.Р. Халқ оғзаки ижодида – сўз санъатининг ўрни | 26 |
| XIDIROV A. Buxoro qadimgi saroy maktabida folklor uslublari tarixi | 28 |
| SAIDIY S.B Darvish Ali Changiy ta'limoti va zamondoshlari | 30 |
| ISMOILOVA M.E Buxoro “Buxorcha”si xususida | 32 |
| NOROVA SH.U. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni xalq musiqasiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish metodlari | 35 |
| НУРУЛЛАЕВ Б.Г. Бухоро фольклор кўшиқлари халқнинг ижодий маъсули сифатида | 38 |
| АЛЛАЕВА З. Ўзбек мусиқа ижрочилигида болалар фольклорининг аҳамияти | 42 |
| НУРМАТОВА М.А., РАХИМОВ А.Э. Фольклорная музыка и изустно-профессиональное творчество | 44 |
| АЛЛАЯРОВА Н. Н. Оилада болаларни халқ оғзаки ижоди намуналари асосида тарбиялаш методи | 47 |
| MUXAMEDOV.T.DJ. Xalq ogzaki ijodi bo'lgan folklor va uning xususiyatlari | 50 |
| SAMIYEVA M. Buxoro musiqa folklorini tadqiq etish tarixidan | 53 |
| SHAMSIYEV S.I Folklor qo'shiqlarining lokal (maxalliy) ijro uslublari | 56 |
| MURODOV M.B O'zbek folklorining janrlari xususida | 58 |
| ODILOV A.I. O'zbek musiqa folklori haqida | 60 |
| РАЖАБОВ Т. Болалар фольклор кўшиқларини ўрганиш жараёнини такомиллаштириш юзасидан тажрибалар моҳияти | 62 |
| РАХМАТУЛЛАЕВА G Bolalar folklyor qo'shiqlarini o'rganishda milliy musiqiy ta'limning o'rni va ahamiyati | 66 |
| SAMIYEVA M. Buxoro musiqa folklorining tarixiy-nazariy va amaliy masalalari | 69 |
| БОЛИЕВ У., ТОШПУЛАТОВ М. Ўзбекистонда фольклоршунослик тараққиёти | 71 |

| | |
|---|-----|
| SALIMOVA SH.I. O'zbek musiqa folklori estetik tarbiya vositasi | 213 |
| NURULLAYEVA N.K. O'quvchilarga estetik ta'lim-tarbiya berishda folklor qo'shiqlarining o'rnini. | 215 |
| ОРТИҚОВ О. Жадид маърифатпарварларининг санъат ва музикага оид қарашлари | 219 |
| РАХИМОВ А.Р., Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish | 223 |
| ГУЛБОЕВ. А.Т Ўзбек миллий музикаси орқали шахсда миллий характерни, миллий ўзликни англаш тарбия манбаи. | 226 |
| MUXAMEDOV T. Folklor va uning o'ziga xos xususiyatlari | 228 |
| MIRSHAYEV U.M. O'zbek musiqa folklori va uning janrlar tarkibi | 232 |
| MIRSHAYEVA D.A. O'zbek musiqa folklori | 234 |
| ҚУРБОНОВА Ў.У. Миллий халқ маросим кўшиқлари - тарбия манбаи сифатида | 237 |
| РАЖАБОВ Д.З. Ўқувчиларга миллий кадриятлар воситасида эстетик тарбия бериш | 241 |
| ЕРЕЖЕПОВ А.А. Халқ дostonларини ижро этилиши асосида ўқувчи-ёшларнинг маънавий-ахлоқий таълим-тарбиясини шакллантиришнинг шакл ва усуллари | 245 |
| РАХМАТОВА М., RAMAZONOVA О`. Buxoroda bolalar folklor qo'shiqlarini ijro etishhig o'ziga xos uslubi | 248 |
| В. Q.SAYIDOV. Mumtoz ashula ijrochiligida yo'l qo'yilayotgan vazn muammolari | 250 |

Muharrir:

Texnik muharrir:

Musahhih:

Sahifalovchi:

G` Murodov

G. Samiyeva

A. Qalandarov

M. Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 03.11.2020. Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'ozini. Bosma tobog'i 16,0. Adadi 100. Buyurtma №168.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi
 “Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
 Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
 Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45